

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori

Moylash materiallari, texnik moylar va texnik suyuqliklarga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi texnik reglamentni tasdiqlash haqida

O‘zbekiston Respublikasining “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2024-yil 28-fevraldagi PQ-91-son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, moylash materiallari, texnik moylar va texnik suyuqliklarga qo‘yiladigan talablarni belgilash maqsadida Vazirlar Mahkamasi **qaror qiladi:**

1. Moylash materiallari, texnik moylar va texnik suyuqliklarga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida texnik reglament (keyingi o‘rinlarda – Texnik reglament) ilovaga muvofiq tasdiqlansin va rasmiy e‘lon qilingan kundan boshlab olti oy o‘tgandan keyin kuchga kiritilsin.

2. Texnik reglament kuchga kirgan kundan boshlab Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 2-oktyabrdagi “Moylash materiallari, texnik moylar va texnik suyuqliklarga talablar to‘g‘risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida”gi 783-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi va O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi bilan birgalikda aholi, davlat va xo‘jalik boshqaruvi, tadbirkorlik subyektlarini xabardor qilish va ular orasida tasdiqlangan texnik reglamentning maqsadi, mazmuni va uni qo‘llash tartibi to‘g‘risida tushuntirish ishlarini olib borsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari A.J. Ramatov va O‘zbekiston Respublikasi Energetika vaziri J.T. Mirzamahmudov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasining
Bosh vaziri**

A. Aripov

Moylash materiallari, texnik moylar va texnik suyuqliklarga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida texnik reglament

1-bob. Umumiy qoidalar

§ 1. Qo‘llanish maqsadi va doirasi

1. Ushbu texnik reglament (keyingi o‘rinlarda –Texnik reglament) inson hayoti va salomatligini, atrof-muhit va mol-mulkni muhofaza qilish va xaridorlarni chalg‘itadigan harakatlarning oldini olish maqsadida moylash materiallari, texnik moylar va texnik suyuqliklarga qo‘yilgan xavfsizlik talablarini belgilaydi.

2. Texnik reglament 1-ilovadagi ro‘yxatga muvofiq, moylash materiallari, texnik moylar va texnik suyuqliklarga (bundan keyingi o‘rinlarda - mahsulot), shuningdek ishlatilgan texnik moylarni yig‘ish, qayta ishlash (utilizatsiya qilish)ga bo‘lgan talablarni belgilaydi.

3. Texnik reglament quyidagilarga taalluqli emas:

davlat mudofaa buyurtmasi bo‘yicha yetkazib beriladigan yoki O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit tarzda harakatlanadigan mahsulotlarga;

o‘simlik va hayvon moylari, toshko‘mir smolasini yuqori haroratda haydash (shu jumladan kreozotli) natijasida olingan moylar, parfyumeriya va kosmetika mahsulotlari, tibbiyot buyumlari va dori vositalarini ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan moylarga.

4. Ayrim turdagi mahsulotlar uchun boshqa texnik reglamentlar qabul qilingan taqdirda, mahsulotning ushbu turlari ularga ta‘sir qiladigan barcha texnik reglamentlarning talablariga javob berishi kerak.

§ 2. Atamalar va ta‘riflar

5. Texnik reglamentda quyidagi atama va ta‘riflardan foydalaniladi:

texnik moy — moylash material yoki ishchi suyuqlik sifatida ishlatiladigan neft yoki sintetik (yarim sintetik) kelib chiqishga ega modda;

ishlatilgan texnik moylar — ekspluatatsiya uchun zarur xususiyatlarini yo‘qotgan, shu jumladan ishchi tizimlardan to‘kilgan, chiqindi deb tasniflangan va qayta ishlanishi (utilizatsiya qilinishi) kerak bo‘lgan texnik moylar;

qayta ishlash (utilizatsiya qilish) – utilizatsiya qilish yoki yangi moylash materiallarini olish maqsadida ishlatilgan texnik moyning hayot siklini tugatish jarayonlari;

iste'mol qadog'i (idish) — mahsulotni dastlabki qadoqlash va yakuniy xaridorga sotish (yetkazish) uchun mo'ljallangan qadoq;

mahsulot - moylash materiallari, texnik moylar va texnik suyuqliklar;

xaridor – mahsulotni va (yoki) ishlatilgan texnik moylarni qonun bilan taqiqlanmagan har qanday maqsadlarda foydalanish uchun sotib oluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs, shu jumladan iste'molchi;

moylash materiali — kelib chiqishi neft yoki sintetik bo'lgan modda bo'lib, aloqa qiluvchi qismlarning ishchi yuzalarida ishqalanish jarayonini osonlashtiradi va buning natijasida ishqalanish kuchi kamayadi va yuzaning eskirishi sekinlashadi;

texnik suyuqlik — neft yoki sintetik kelib chiqishga ega, ishchi muhit sifatida foydalanish uchun mo'ljallangan suyuqlik

tashish uchun mo'ljallangan idish — mahsulotlarni va ishlatilgan texnik moylarni saqlash va harakatlanish paytida ifloslanishdan himoya qilish uchun mo'ljallangan va mustaqil transport birligini tashkil qiladigan idishlar.

2-bob. Xavfsizlik talablari

§ 1. Umumiy talablar

6. Fizik-kimyoviy ko'rsatkichlariga ko'ra moylash materiallari, texnik moylar va texnik suyuqliklar Texnik reglamentning 2-ilovasida ko'rsatilgan talablarga javob berishi kerak.

7. Ishlatilgan texnik moylarni keyingi qayta ishlashga (utilizatsiya qilishga) tayyorlash uchun ishlatilgan texnik moylarni yig'ish punktlariga yetkazib berilishi kerak.

Ishlatilgan texnik moylar keyingi qayta ishlash (utilizatsiya qilish) uchun quyidagi jadvalda ko'rsatilgan guruhlar bo'yicha taqsimlanadi.

Jadval

Guruh	Tarkibi
IMM	Ishlatilgan motor moylari: universal, benzin, dizel, gazsimon yoqilg'idagi va porshenli aviatsiya dvigatellari uchun
IIM	Ishlatilgan industrial moylar: transmissiya moylari; industrial moylar; turbina moylari; kompressor moylari; gidravlik moylar; korroziyaga qarshi moylar; elektr izolyatsiyasi moylari.

8. Ishlatilgan texnik moylarni topshirish, yig'ish, saqlash va tashish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

2-§. Yong'in xavfsizligi talablari

9. Mahsulot va ishlatilgan texnik moylarning yong'in xavfsizligiga oid asosiy Qoidalar O'zbekiston Respublikasining yong'in xavfsizligi masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

3-§. Ekologik xavfsizlik talablari

10. Mahsulot va ishlatilgan texnik moylarning ekologik xavfsizligiga doir asosiy Qoidalar O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

11. Mahsulot ishlab chiqarish va ishlatilgan texnik moylarni qayta ishlash, shuningdek ularni saqlash va tashishda atrof-muhit muhofazasi, ushbu jarayonlarda germetik bo'lgan quvurlar, uskunalar, tashish uchun mo'ljallangan idish va iste'mol qadoqlaridan foydalanish orqali ta'minlanishi lozim.

12. Mahsulot ishlab chiqarish va ishlatilgan texnik moylar bilan ishlashda quyidagilar taqiqlanadi:

suv havzalariga, tuproqqa, umumiy foydalanishdagi kanalizatsiya tarmoqlariga quyish (to'kish, tushirish);

keyinchalik ko'mish maqsadida maishiy va sanoat chiqindilari uchun mo'ljallangan poligonlarga olib chiqish;

tartibga solinmagan tarzda yoqish;

elektr energiyasi qurilmalari uchun mo'ljallangan yoqilg'ini olishda neft (gaz kondensati) bilan benzin, kerosin, dizel va yoqilg'ilar (suv kemasi, qozonxona-pechi, mazut)ni aralashtirish, qonunda nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno;

tarkibida galogen-organik mavjud birikmalar bilan aralashtirish;

adgeziyaga qarshi materiallar va qurilish materiallarini namlash vositalari sifatida ishlatish.

3-bob. Mahsulotlarni qadoqlash va markirovkalash talablari

§ 1. Qadoqlash talablari

13. Mahsulot tashish uchun mo'ljallangan idish yoki iste'mol qadoqlariga (idishlariga) qadoqlanadi. Ishlatilgan texnik moylar tashish uchun mo'ljallangan idishlarga qadoqlanadi.

14. Tashish uchun mo'ljallangan idishlar va iste'mol qadoqlari (idishlari) yuklash va tushirish, tashish va saqlash jarayonlarida mahsulotlar va ishlatilgan texnik moylarning xavfsizligini hamda tashqi ta'sirlardan (iqlimiy, mexanik) zarur himoyani ta'minlashlari kerak.

§ 2. Markirovkalash talablari

15. Iste'mol qadoqlariga (idishlariga) joylashtirilgan mahsulotni markirovkalash bevosita iste'mol qadoqlariga (idishlariga) yoki iste'mol qadog'iga (taraga) biriktiriladigan etiketkaga qo'yiladi.

16. Tashish uchun mo'ljallangan idishga qadoqlangan mahsulotlarning markirovkasi to'g'ridan-to'g'ri tashish uchun mo'ljallangan idishga yoki unga biriktirilgan etiketka yoki yorliqqa qo'yiladi.

17. Mahsulot markirovkasi o'z ichiga quyidagi ma'lumotlarni olishi kerak:

mahsulotning nomi, rusumi va maqsadi;

ishlab chiqarilgan davlat nomi;

ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining yoki ishlab chiqaruvchi tomonidan vakolat berilgan shaxsning nomi va joylashgan joyi (pochta manzili);

savdo belgisi (mavjud bo'lsa);

sof og'irligi yoki hajmi;

brutto va netto massasi (tashish uchun mo'ljallangan idishga qadoqlashda);

saqlash muddati va shartlari;

ishlab chiqarilgan sana (oy, yil);

mahsulot muvofiqligini tasdiqlash to'g'risidagi ma'lumot;

mahsulot ishlab chiqarishga tegishli texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjat nomi.

18. Ishlatilgan texnik moylar markirovkasi o'z ichiga quyidagi ma'lumotlarni olishi kerak:

“Ishlatilgan texnik moy” yozuvi;

ishlatilgan texnik moy guruhi (IMM yoki IIM);

brutto va netto massasi.

19. Mahsulotlar va ishlatilgan texnik moylarning markirovkasi ishonchli va o'qiladigan bo'lishi, ishqalanishga va tashqi muhit ta'siriga chidamlili bo'lishi kerak.

20. Inson salomatligiga, atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatishi, yong'inga nisbatan xavfli xususiyatlarga ega bo'lgan mahsulot va ishlatilgan texnik moylar markirovkasi tegishli ogohlantiruvchi yozuvlar va manipulyatsiya belgilariga ega bo'lishi kerak.

21. Mahsulotlarni yirik taralar (temir yo'l va avtomobil sisternalari, konteynerlar)da yetkazib berishda Texnik reglamentning 17-bandida ko'rsatilgan ma'lumotlar kuzatuv hujjatlarida keltiriladi.

22. Mahsulotlar va ishlatilgan texnik moylarning markirovkasi va kuzatuv hujjatlaridagi ma'lumotlar davlat tilida berilishi kerak. Ma'lumotlarni boshqa tillarda takrorlashga ruxsat beriladi.

4-bob. Muvofiqlikni baholash

§ 1. Mahsulotni identifikatsiyalash

23. Identifikatsiya deganda taqdim etilgan mahsulotning markirovkasi va unga ilova qilingan hujjatlarda ko'rsatilgan muhim xususiyatlarga muvofiqligini aniqlash tushuniladi.

24. Mahsulotlar quyidagilar tomonidan identifikatsiya qilinadi:

mahsulotni O'zbekiston Respublikasi hududida muomalaga taqdim etuvchi ishlab chiqaruvchi (sotuvchi);

sertifikatlashtirish organi – mahsulotning muvofiqligini baholash va tasdiqlash maqsadida;

davlat nazorat organi – O'zbekiston Respublikasi hududida muomalada bo'lgan mahsulotning Texnik reglament talablariga muvofiqligini tekshirish maqsadida.

25. Identifikatsiya qilish mahsulotning nomi, rusumi, maqsadi, shuningdek o'ziga xos xususiyatlariga muvofiqligi bo'yicha amalga oshiriladi.

§ 2. Namuna tanlash va sinovlar o'tkazish

26. Mahsulotlarning Texnik reglament talablariga muvofiqligini baholash uchun zarur sinov usullari, shuningdek, namuna olish usullari texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiq bajariladi.

5-bob. Texnik reglament talablariga rioya etilishining davlat nazorati

27. Texnik reglament talablariga rioya etilishi bo'yicha davlat nazorati Texnik jihatdan tartibga solish agentligi, shuningdek, boshqa mutasaddi davlat organlari tomonidan ularning vakolatlari doirasida amalga oshiriladi.

6-bob. O'tish davri

28. Ushbu Texnik reglament kuchga kirgan paytdan boshlab, O'zbekiston Respublikasi hududida moylash materiallari, texnik moylar va texnik suyuqliklarga qo'yiladigan talablarni belgilaydigan texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi amaldagi normativ hujjatlar mazkur Texnik reglamentga muvofiqashtirilgunga qadar Texnik reglamentga zid bo'lmagan qismi amal qiladi.

29. Texnik reglament amalga kiritilgunga qadar mahsulotlarga rasmiylashtirilgan muvofiqlik sertifikatlari ushbu hujjatlarda belgilangan muddat davomida amal qiladi.

7-bob. Texnik reglamentga rioya qilmaslik uchun javobgarlik

30. Texnik reglament talablarini buzishda aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

**Texnik reglament talablari qo‘llaniladigan moylash materiallari, texnik moylar
va texnik suyuqliklar**

RO‘YXATI

№	Nomlanishi	Ta’rifi
I. Moylash materiallari		
1.	Plastik moylash materiallari	Mashina va mexanizmlarning qismlarining ishqalanish yuzalarining eskirishini kamaytirish va xizmat qilish muddatini uzaytirish uchun ishlatiladigan surkov moylari
Texnik moylar		
2.	Motor moylari (universal, benzin, dizel, gazsimon yoqilg‘idagi va porshenli aviatsiya dvigatellari uchun)	Detallarning ishqalanishi va eskirishini kamaytirish uchun ichki yonish dvigatellarida qo‘llaniladigan moylar
3.	Transmissiya moylari	Yengil va yuk mashinalari, avtobuslar, traktorlar, teplovozlar, yo‘l qurilishi va boshqa mashinalar agregatlarining ishqalanish tugunlarida, shuningdek, sanoat uskunalari qismlarning turli tirnoqli (tishli) reduktorlari va zanjirli uzatmalarida ishqalanish va eskirishini kamaytirish uchun ishlatiladigan moylari
4.	Industrial moylar	Ishqalanish va qismlarning eskirishini kamaytirish uchun sanoat uskunalari mashinalari va mexanizmlarida ishlatiladigan moylar
5.	Gidravlik moylar	Mexanik energiyani uzatish uchun gidravlik uzatmalar (privodlar), gidravlik mexanizmlar va gidravlik tizimlarda ishchi muhit sifatida qo‘llaniladigan moylar
6.	Kompressor moylari	Ishqalanish va qismlarning eskirishini kamaytirish uchun porshenli va rotatsion kompressorlarda qo‘llaniladigan moylar

№	Nomlanishi	Ta’rifi
7.	Turbina moylari	Turboagregatlar: bug‘ va gaz turbinalari, gidroturbinalar, turbo-kompressorlar mashinalarining podshipniklarini moylash va sovitish uchun qo‘llaniladigan moylar
8.	Korroziyaga (yemirilishga) qarshi moylar	Qora va rangli metallarni korroziyadan vaqtincha himoyalash uchun qo‘llaniladigan moylar
9.	Elektr izolyatsiya moylari	Elektr apparatlar va qurilmalarni (transformatorlar, kondensatorlar) izolyatsiyalash va sovitish uchun ishlatiladigan moylar
II. Texnik suyuqliklar		
10.	Sovitish suyuqlilari	Ichki yonish dvigatellaridagi issiqlikni yutish va chiqarish uchun ishlatiladigan texnik suyuqliklar
11.	Tormoz suyuqlilari	Tormoz tizimlarining gidrouzatmalarida ishchi muhit sifatida ishlatiladigan texnik suyuqliklar
12.	Gidravlik suyuqliklar	Turli gidravlik tizimlarda bosim energiyasi va kinetik energiyani uzatish uchun ishchi muhit sifatida ishlatiladigan texnik suyuqliklar
13.	Amortizator suyuqlilari	Mexanik tebranishlarni so‘ndirish uchun gidravlik amortizatorlarda ishchi muhit sifatida ishlatiladigan texnik suyuqliklar
14.	Ajratish suyuqlilari	Moslamalar, qurilmalar, datchiklarning agressiv muhit bilan aloqasining oldini olish uchun ishlatiladigan texnik suyuqliklar
15.	Muzlashga qarshi suyuqliklar	Muzlamalarning oldini olish uchun ishlatiladigan texnik suyuqliklar

Moylash materiallari, texnik moylar va texnik suyuqliklarning fizik-kimyoviy ko'rsatkichlariga qo'yilgan

TALABLAR

№	Ko'rsatkich nomi	Qiymati
I. Moylash moylari		
1.	Mexanik aralashmalar massa ulushi, plastik moylar, %, ko'pi bilan:	0,03
2.	Tomchi tushish harorati, plastik moylar, °C, kamida	moylash materialining maqsadiga ko'ra ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilanadi
3.	NaOH ga qayta hisoblangan erkin ishqorning massa ulushi, plastik moylarda, %, ko'pi bilan	0,2
II. Texnik moylar		
4.	Suvning massa ulushi*, %, ko'pi bilan	Izlar
5.	Mexanik aralashmalarining massa ulushi, %, ko'pi bilan:	
	motor moylari	0,02
	transmissiya moylari	0,03
	gidravlik, industrial, kompressor, korroziyaga qarshi, turbina, elektr izolyatsiya moylari	0,07
6.	Motor moylarining ishqoriy soni**, mg KON 1 g uchun, kamida	ishlab chiqaruvchi tomonidan moy markasiga muvofiq belgilanadi
7.	Ochiq yoki yopiq tigldagi chaqnash harorati, °C, kamida:	
	motor moylari	165
	transmissiya moylari	128
	turbina moylari	180
	gidravlik moylar	93
	industrial, korroziyaga qarshi moylar	140
	kompressor moylari	200
	elektr izolyatsiya moylari	135
8.	Motor moylaridagi sulfatli kul miqdori, %, ko'pi bilan:	
	benzin dvigatellari uchun	1,3
	yengil avtomobillarning dizel dvigatellari uchun	1,8
	avtobuslar, yuk mashinalari va yo'ltanlamos texnikalar dizel dvigatellari uchun	2,0

9.	Fosforning massa ulushi, motor moylarida, %, ko‘pi bilan:	0,12
10.	O‘z-o‘zidan alanganish harorati***, °C, kamida:	
	motor moylari	300
	transmissiya moylari	130
	elektr izolyatsiya moylari	165
	gidravlik, kompressor, korroziyaga qarshi va industrial moylar	220
	kompressor moylari	280
	turbina moylari	400
11.	Qovushqoqlik: kinematik 100 °C, va/yoki 50 °C, va/yoki 40 °C, va/yoki 20 °C, mm ² /s bo‘lganda dinamik – motor moylari (yozgi rusumlardan tashqari) va transmissiya moylari uchun, mm ² /s (mPa·s)	ishlab chiqaruvchi tomonidan texnik moylar markasiga muvofiq belgilanadi
III. Texnik suyuqliklar		
12.	Vodorod ko‘rsatkichi (pH)	6 dan 10 gacha
13.	101,3 kPa bosim ostida qaynash harorati, °C kamida, faqat tormoz va gidravlik suyuqliklar uchun	140
14.	Mexanik aralashmalarning massa ulushi (sovitish va muzlamaga qarshi suyuqliklardan tashqari)	mavjud emas
15.	Kristallanishning boshlanish harorati, °C, ko‘pi bilan:	
	Sovitish suyuqliklari	minus 35
	muzlashga qarshi suyuqliklar	minus 60
16.	Qotish harorati, ko‘pi bilan:	
	ajratish suyuqliklari	minus 10
	amortizator suyuqliklari	minus 35

* “Suvning massa ulushi” ko‘rsatkichining “izlar” (juda kam, sezilarsiz)ga teng qiymati asos moylar (qo‘shimchalarsiz) uchun belgilangan.

** Ishqor soni faqat yuvuvchi-disperglovchi qo‘shimchali moylar uchun aniqlanadi.

*** GOST 4.24-84 “Moylash moylari. Ko‘rsatkichlar nomenklaturasi” ga muvofiq o‘z-o‘zidan yonish harorati faqat mahsulot ishlab chiqarishga kiritilganda aniqlanadi. Muayyan moy markalari uchun me‘yoriy hujjatlarda ushbu ko‘rsatkichning darajasi “Xavfsizlik talablari” bo‘limida – ularning yong‘inga xavfli xususiyatlarining tavsifi sifatida ko‘rsatilishi kerak.